

| Nº  | MUNDARIJA   | Page |
|-----|---|------|
| 1.  | <b>MILLIY SUG'URTAS BOZORINING INVESTITSIYAVIY JOZIBADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI</b><br><i>Qo'ldoshev Qamariddin Mansurovich</i>  | 4    |
| 2.  | <b>MOLIYAVIY XAVFSIZLIKNI TA'MINLASHDA PENSIYA VA HAYOT SUG'URTASINING AHAMIYATI</b><br><i>Mirzamahmudova Madina Odiljon qizi</i>   | 8    |
| 3.  | <b>SUG'URTA MEXANIZMLARINING IQTISODIY XAVFSIZLIKKA TA'SIRI VA IMKONIYATLARI</b><br><i>Ko'chimov Abdujamil Hamraqulovich, To'g'izova Malika Soxib qizi</i>  | 11   |
| 4.  | <b>YANGI O'ZBEKİSTONDA AHOLINI IJTIMOIY HIMoyalash borasida davlat tibbiy Sug'urtasining ahamiyati</b><br><i>Ametova Fotimajon Rozmatovna</i>   | 14   |
| 5.  | <b>O'ZBEKİSTON SUG'URTA BOZORIDA HAYOT SUG'URTA SOHASINI RIVOJLANTIRISH YO'NALISHLARI</b><br><i>Matiyazova Sanobar Rajabbayovna</i>   | 17   |
| 6.  | <b>TAKAFUL: ISLOMIY SUG'URTANING ZAMONAVIY IMKONIYATLARI VA RIVOJLANISH MUAMMOLARI</b><br><i>Xudoiberdiyev Umid Murodovich</i>  | 20   |
| 7.  | <b>GLOBAL MOLIYAVIY BEQARORLIK SHAROITIDA JAHON SUG'URTA BOZORIDAGI ASOSIY TENDENSIYALAR</b><br><i>Xalikov Umid Raxmatullaevich</i>   | 24   |
| 8.  | <b>SUG'URTA TASHKIOTLARINING MOLIYAVIY BARQARORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI</b><br><i>Umarova Gulnora Akromovna</i>   | 28   |
| 9.  | <b>ISLOMIY MOLIYALASH: TAMOYLLARI, TUZILISHI VA ISTIQBOLLARI</b><br><i>Yarashova Vasila Kamalovna, Yuldashtshuvaev Saidusmonkhuzha Botir ugli</i>   | 30   |
| 10. | <b>BUDJET TASHKIOTLARIDA ASOSIY VOSITALARNING ESKIRISHI VA UNGA QO'YILADIGAN CHORA-TADBIRLAR</b><br><i>Ashirova Gulchehra Abdug'aniyevna</i>  | 33   |
| 11. | <b>MINTAQAVIY IQTISODIYOTNING MAMLAKAT RIVOJLANISHIDAGI O'RNI</b><br><i>Toshaliyeva Saodat Toxirovna</i>  | 36   |
| 12. | <b>SANOAT TARMOG'INING IQTISODIY SALOHIYATINI BAHOLASHDA EKONOMETRIK USULLAR VA OMILLAR</b><br><i>Kasimov Azamat Abdukarimovich</i>   | 39   |
| 13. | <b>TADBIRKORLIK SUBYEKTALARINING RENTABELLIGINI BAHOLASHDA EBITDA ASOSIDA BALLI REYTING TIZIMINI SHAKLLANTIRISH METODOLOGIYASI</b><br><i>Abdullayev Zafarbek Safibullayevich</i>  | 42   |
| 14. | <b>O'ZBEKİSTONDA EKOLOGIK BARQARORLIKKA TA'SIR ETUVCHI OMILLARNI ANIQLASH</b><br><i>Xamdamov Shoh-Jaxon Raxmat o`g`li</i>   | 48   |
| 15. | <b>KORXONALARGA TO'G'RIDAN-TO'G'RI XORIJUY INVESTITSIYALARNI JALB ETISH SHAKLLARI</b><br><i>Ibragimov G'anjon G'ayratovich</i>  | 51   |
| 16. | <b>YASHIL SUG'URTANI RIVOJLANTIRISHDAGI MUAMMOLAR VA IMKONIYATLAR</b><br><i>Yo'ldosheva Aziza Muzaffar qizi</i>   | 54   |
| 17. | <b>O'ZBEKİSTONDA MILLIY IQTISODIYOTNI BARQAROR O'SISH SHAROITIDA QIMMATLI QOG'OZLAR BOZORINI JADAL RIVOJLANTIRISHDA ANDERRAYTING OPERATSIYALARINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI</b><br><i>Alimov Ilhomjon Ikromovich</i> | 57   |
| 18. | <b>KICHIK BIZNES SUBYEKTALARINING DAROMADINI OSHIRISH STRATEGIYALARI</b><br><i>Sharipov Ixtiyor Baxtiyorovich</i>   | 60   |
| 19. | <b>O'ZBEKİSTON RESPUBLIKASI AHOLISINI ISH BILAN BANDLIGINI OSHIRISH YO'LLARINI STATISTIK TAHLILI</b><br><i>Razikova Gulmira Sharifovna</i>  | 63   |
| 20. | <b>O'ZBEKİSTON SUG'URTA TASHKIOTLARIDA KORPORATIV BOSHQARUV TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI</b><br><i>Xasanov Farrux Ravshanovich</i>  | 65   |

## “O'ZBEKISTON SUG'URTA BOZORI” JURNALI TAHIR KENGASHI A'ZOLARI

1. Teshabayev To'lqin Zakirovich (Kengash raisi, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti rektori, falsafa fanlari doktori, professor).
2. Maqsudov Davron Sanjarxo'jayevich (Kengash raisi o'rinnbosari, Istiqbolli loyihalar milliy agentligi direktori o'rinnbosari).
3. Azimov Rustam Sadikovich ("O'zbekinvest" eksport-import sug'urta kompaniyasi" AJ bosh direktori, falsafa fanlari doktori).
4. Mehmonov Sultonali Umaraliyevich (Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti prorektori, fan nomzodi, professor).
5. Abdurahmonova Gulnora Qalandarovna (Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti prorektori, falsafa fanlari doktori, professor).
6. Sindarov Sherzod Egamberdiyevich (Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti prorektori, falsafa fanlari doktori, professor).
7. Zakirov Latif Xamidullayevich (Moliya vazirligi huzuridagi TKFJMS qoshidagi To'lovlarni kafolatlash jamg'armasi direktori).
8. Xalilov Oybek Nasirovich (O'zbekiston sug'urta bozori professional ishtirokchilar uyushmasi kengashi raisi).
9. Qurbonov Xayrulla Abdurasulovich (TDIU Xalqaro va milliy reytinglar bilan ishslash kafedrasи mudiri, dots.).
10. Quldoshev Qamariddin Mansurovich (TDIU "Sug'urta ishi" kafedrasи professori, DSc, bosh muharrir).
11. Zaynalov Jahongir Rasulovich (Samarqand iqtisodiyot va servis instituti "Moliya" kafedrasи mudiri, falsafa fanlari doktori, prof.)
12. Shennayev Xojayor Musurmanovich (TDIU "Sug'urta ishi" kafedrasи mudiri, DSc, prof.).
13. Boyev Xabibullo Ismoilovich (TDIU "Sug'urta ishi" kafedrasи professori, falsafa fanlari doktori).
14. Ortiqov Furqat A'zamjonovich ("Kafil Sug'urta" AK sug'urta kompaniyasi direktorlar kengashi raisi).
15. Nurullayev Abdulaziz Sirojiddinovich (O'zbekiston madaniyat va san'at instituti professori, falsafa fanlari dots.).
16. Merident Randles (FSA, MAAA. Principal & Consulting Actuary. Katta maslahatchi, UNDP-Milliman Global Actuarial Initiative).
17. Ong Xie (FIA, FSAS. Dastur menejeri, UNDP-Milliman Global Actuarial Initiative. Olmosh: She/Her).
18. Hasanov Xayrulla Nasrullahayevich (TDIU Beshta tashabbus markazi kafedra mudiri, t.f.n.).
19. Mamadiyarov Zokir Toshtemirovich (TDIU "Moliya bozori va sug'urta" kafedrasи mudiri, falsafa fanlari doktori).
20. Mutualova Dilorom Maxamadjanovna (TDIU "Soliqlar va soliqqa tortish" kafedrasи professori, falsafa fanlari doktori).
21. Imomov Hamdilla Hamdamovich (TDIU "Korporativ moliya va qimmatli qog'ozlar" kafedrasи professori v.b., falsafa fanlari doktori).
22. Kenjayev Ilxom G'iyozovich (TDIU Magistratura bo'yicha dekan o'rinnbosari, t.f.d., dots.).
23. Yadgarov Akram Akbarovich (TDIU "Yashil iqtisodiyot" kafedrasи professori v.b., falsafa fanlari doktori).
24. Yuldashev Obiddin Toshmurzayevich (TDIU "Sug'urta" kafedrasи professori v.b.).
25. Samadov Asqarjon Nishonovich (TDIU "Marketing" kafedrasи dotsenti, universitet Kengashi kotibi, fanlar nomzodi).
26. Baratova Dinara Alisherovna (TDIU "Sug'urta" kafedrasи dotsenti, t.f.n. kotib).
27. Qarshiyev Daniyar Eshpo'latovich (TDIU "Sug'urta" kafedrasи dotsenti, t.f.n., bosh muharrir).
28. Nomozova Qumri Isoyevna (Bank-moliya akademiyasi dotsenti, PhD).
29. Hamdamov Shoh-Jahon Raxmat o'g'li (TDIU "Korporativ moliya va qimmatli qog'ozlar" kafedrasи dotsenti, t.f.n.).
30. Maxmudov Samariddin Baxriddinovich (TDIU "Korporativ moliya va qimmatli qog'ozlar" kafedrasи dotsenti, t.f.n.).



## O'ZBEKISTON SUG'URTA TASHKILOTLARIDA KORPORATIV BOSHQARUV TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI

Xasanov Farrux Ravshanovich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, (PhD)

E-mail: f.xasanov@bk.ru

DOI: [https://doi.org/10.55439/INS.vol2\\_iss2/281](https://doi.org/10.55439/INS.vol2_iss2/281)

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada O'zbekiston sug'urta tashkilotlarida korporativ boshqaruv tizimining shakllanishi va rivojlanishining xususiyatlari ko'rib chiqilgan. Korporativ boshqaruv tizimining samaradorligiga to'sqinlik qilayotgan asosiy muammolar aniqlangan hamda sug'urta sohasida korporativ boshqaruv mechanizmlarini takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar taklif etilgan.

**Kalit so'zlar:** korporativ boshqaruv, sug'urta tashkilotlari, sug'urta bozori, aksiyadorlik jamiyat, aksiyadorlar, boshqaruv organlari, tartibga solish siyosati.

**Abstract:** The article examines the features of the formation and development of the corporate governance system in insurance organizations of Uzbekistan. The main problems hindering the effectiveness of the corporate governance system have been identified, and also proposed recommendations for improving corporate governance mechanisms in the insurance sector.

**Keywords:** corporate governance, insurance organizations, insurance market, joint stock company, shareholders, governing bodies, regulatory policy.

**Абстрактный:** В статье рассмотрены особенности становления и развития системы корпоративного управления в страховых организациях Узбекистана.

Выявлены основные проблемы, препятствующие эффективности системы корпоративного управления, а также предложены рекомендации по совершенствованию механизмов корпоративного управления в страховом секторе.

**Ключевые слова:** корпоративное управление, страховые организации, страховой рынок, акционерное общество, акционеры, органы управления, регуляторная политика.

### Kirish(Введение/ Introduction)

Bozor iqtisodiyoti sharoitida sug'urta sohasi moliyaviy tizimning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. U iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash, fuqarolar va yuridik shaxslarning moliyaviy va boshqa xavflarini kamaytirish hamda iqtisodiyotga investitsiya resurslarini yo'naltirishda ishtirok etadi. Shu nuqtai nazardan, sug'urta tashkilotlarining faoliyatini samarali tashkil etish va ularning ustidan sifatli korporativ boshqaruvni joriy etish iqtisodiy tarraqqiyotning muhim omillaridan biridir.

So'nggi yillarda mamlakatimizda sug'urta bozori isloh qilinmoqda, xorijiy investorlar uchun qulay muhit yaratilmoqda va davlat ishtirokidagi kompaniyalarni xususiyashtirish bo'yicha chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Biroq, bu sohada samarali korporativ boshqaruv mehanizmlarining to'liq shakllanmaganligi, menejment va kuzatuv kengashlarining mustaqilligi yetarli emasligi, manfaatdor tomonlar o'rtafigi hisobdorlik va shaffoflikning past darajada ekanligi kabi muammolar haligacha dolzarb bo'lib qolmoqda.

O'zbekiston iqtisodiyotini liberallashtirish sharoitida sug'urta bozori global jarayonlarga bosqichma-bosqich integratsiyalashib bormoqda, bu esa korporativ boshqaruv tuzilmalarini xalqaro standartlarga muvofiq modernizatsiya qilish zaruratiniz tug'dirmoqda. Ushbu maqola O'zbekiston sug'urta tashkilotlarida korporativ boshqaruvning bugungi holatini o'rganish, mavjud muammolarni tahsil qilish va kelgusida rivojlanish yo'nalishlarini taklif qilishga qaratilgan.

### Mavzuga oid adabiyotlar tahlili (Обзор литературы/Literature review)

Iqtisodiy adabiyotlarda va ilmiy maqolalarda korporativ boshqaruv tizimiga oid tadqiq va izlanishlar amalga oshirilib, bu yo'nalishda tegishli xulosa va takliflar ishlabi chiqilgan. X.Chupanova o'zining ilmiy tadqiqotlarda korporativ boshqaruv sug'urta tashkilotlarining qiymatitini oshishiga ta'sir etishini turli tahlillar bilan keltirib o'tgan. Uning fikricha, korporativ boshqaruv tizimida rag'batalantirish mezonlarini shakllantirishda moliyaviy ko'rsatkichlardan tashqari biznes jarayonlari,

mijozlar bilan munosabatlar, personalni o'stirish jihatlari ham qamrab olinishi maqsadga muvofiq [6].

Korporativ boshqaruv sohasida expert, olim B.Triker "Corporate Governance: Principles, Policies and Practices" kitobida sug'urta tashkilotlari misolida moliyaviy institutlarda korporativ boshqaruvning o'ziga xos jihatlarini yoritib bergan [7].

D.Baxriev "Sug'urta kompaniyalarini boshqarishning zamonaviy modellarini" nomli maqolasida sug'urta kompaniyalarida zamonaviy boshqaruv modellarini joriy etish orqali moliyaviy barqarorlikni ta'minlash masalalari ko'rib chiqilgan. Muallif kompaniya boshqaruviga ta'sir etuvchi omillar, investitsion salohiyat va sug'urta kompaniyalarining moliyaviy faoliyatini tahlil qilgan [8].

### Tadqiqotni amalga oshirishda foydalanilgan usullar (Methods/Методы)

Ushbu tadqiqotni amalga oshirishda ekspert baholash, umumlashtirish, taqqoslash, tarixiy va mantiqiy yondashuv, tahlil, statistik ma'lumotlarni guruhlash usullaridan foydalanildi.

### Tahlillar (Analysis/Анализ)

Korporativ boshqaruv - bu aksiyadorlar, menejerlar va boshqa manfaatdor tomonlar o'rtafigi munosabatlarni tartibga soluvchi mehanizmlar tizimidir. Bu tizim tashkilotning strategik rivojlanishini belgilash, xavflarni boshqarish, resurlardan samarali foydalanish va oxir-oxiqibatda foydani oshirishda muhim rol o'yaydi. Xalqaro amaliyotda yaxshi shakllangan korporativ boshqaruv tizimi xorijiy investorlar ishonchini orttiradi, moliyaviy barqarorlikni ta'minlaydi va tashkilotning ijtimoiy mas'uliyatini kuchaytiradi.

Bozor iqtisodiyotida kompaniyalarning samarali faoliyat yuritishi ularning ichki boshqaruv tizimiga, xususan, korporativ boshqaruvning samaradorligiga bog'liq. Korporativ boshqaruv bu – tashkilotning strategik boshqaruvini, manfaatdor tomonlar, aksiyadorlar va menejment o'rtafigi munosabatlarni tartibga soluvchi tizimdir. Sug'urta tashkilotlari esa moliyaviy tizimning muhim qismi sifatida moliyaviy

barqarorlik va ishonch muhitini ta'minlaydi. Shu nuqtai-nazardan sug'urta tashkilotlarida samarali korporativ boshqaruv tizimini shakllantirish muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

O'zbekistonda sug'urta tashkilotlarida korporativ boshqaruv tizimini isloh qilish 2021 yil 23 noyabrdagi yangi tahrirda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining "Sug'urta faoliyati to'g'risida"gi 730-soni Qonuni bilan amalga oshirildi. Mazkur qonun talablariga muvofiq sug'urtalovchilar (qayta sugurtalovchilar) aksiyadorlik jamiyat shaklida tashkil etilishi belgilab qo'yildi. Ta'kidlash joizki, mazkur talabga qadar sug'urta bozorida faoliyat yuritayotgan jami 42 ta sug'urta tashkilotlaridan 35 tasi mas'uliysi cheklangan jamiyat shaklida faoliyat ko'sratib kelayotgandi, faqtgina quyidagi 7 ta sug'urta tashkilotlari aksiyadorlik jamiyat shaklida faoliyat yuritayotgan edi, bular:

- "O'ZAGROSUG'URTA" Aksiyadorlik Jamiyat;
- "KAFOLAT SUG'URTA KOMPANIYASI" Aksiyadorlik Jamiyat;
- "ALSKOM SUG'URTA KOMPANIYASI" Aksiyadorlik Jamiyat;
- "KAPITAL SUG'URTA" Aksiyadorlik Jamiyat;
- "O'zbekinvest eksport-import sug'urta kompaniyasi" Aksiyadorlik Jamiyat;
- "Universal sug'urta" Aksiyadorlik Jamiyat;
- "INGO Uzbekistan" Aksiyadorlik Jamiyat.

Sug'urta tashkilotlarini aksiyadorlik jamiyat tashkiliy-huquqiy shakliga o'tkazilishidan ko'zlangan asosiy maqsadlardan biri bu ularning faoliyatida shaffoflikni ta'minlashdir. Bu o'z navbatida sug'urtalovchilar va investorlarfa sug'urta tashkilotining moliyaviy hisobotlari, rentabellik ko'sratichilari va faoliyatida yus berayotgan muhim faktlar bilan ochiq ma'lumotlar asosida tanishish imkonini beradi.

Bundan tashqari aksiyadorlik jamiyat mas'uliysi cheklangan jamiyatga qaraganda tashkilotni kapitallashuvini oshirishda va boshqa qator imkoniyatlarni beradi. Bularni quyidagi jadvalda keltirilgan farqlar asosida ko'rishimiz mumkin (1-jadvalga qarang).

1-jadval

#### Aksiyadorlik jamiyatni va Mas'uliyati cheklangan jamiyatning farqli jihatlarini<sup>1</sup>

| Nº | Ustunlik yo'naliши                   | Aksiyadorlik jamiyatni (AJning imkoniyatlari)   | Mas'uliyati cheklangan jamiyatni (MCJning imkoniyatlari)   |
|----|--------------------------------------|---|--|
| 1. | Kapital jaib qilish mexanizmi        | Aksiya chiqarish orgali ichki va tashdar investorlardan ommaviy (IPO) va xususiy (private placement) tarzda investitsiya jaib qilinishi | Ulushlar faqat ishtirokchilar o'tasida taqsimlanadi. Yangi ishtirokchi qabul qilish cheklangan                 |
| 2. | Qimmatli qog'ozlar bozorida ishtirok | Mahalliy va xalqaro birjardorda aksiyalar muomalamada bo'lishi. Likvidlik va bozor qiyomatini shakllantirish imkoniyati bor             | Ulushlar yopiq tarzda soltiladi. Birjada muomalamaga chiqarilmaydi   |
| 3. | Investorlar soni bo'yicha erkinlik   | Aksiyadorlarning sonida cheklev yo'q. Xalqaro institutional va mayda investorlarни jaib etish imkoniyati bor                            | Ishtirokchilar soni 50 nafardan oshmasligi kerak   |
| 4. | Korporativ boshqaruv modeli          | Kuzatuv kengashi, ijro organi, korporativ kotib, audit qo'mitasi orgali tizimi, shaffof boshqaruv ta'minlanadi                          | Boshqaruv yakkava shaxs - direktor yoki ishtirokchilar yig'ilishiha bog'liq                                    |
| 5. | Xalqaro hamkorlik imkoniyati         | IFRS (xalqaro moliyaviy hisob standartlari) asosida hisob yuritiladi, bu esa investorlar va hamkorlar uchun ishonchni oshiradi          | Hisob mahalliy standart asosida yuritiladi. IFRS (xalqaro moliyaviy hisob standartlari) qo'llanishi ixtirovchi |
| 6. | Moliyaviy shaffoflik va obro'        | Majburiy audit, ommagga ochiq hisobotlar, aksiyadorlarning huquqlari himoyasi - yuqori ishonchni ta'minlaydi                            | MChJda faqat sololi organlariga hisob beriladi, jamoatchilik nazorati mavjud emas                              |
| 7. | Kodimlarni motivatsiya qilish (ESOP) | Aksiyalar orgali kodimlarga motivatsiya paketlari (stock options) taqdim etish mumkin   | MChJda ulushlar orgali motivatsiya yaratish murakkab va cheklangan   |
| 8. | Strategik biznes modellashtirish     | Holding, transmissiyu tuzilmalar tashkil qilish mumkin  | MChJda bunday tarmoq tuzish huquqiy va amaliy jihatdan cheklangan  |
| 9. | Bozor raqobatida ustunlik            | Brend qiymati, investorlar talabi asosida korporativ standartlar joriy etilgan  | MChJda bunday tizim yo'q. raqobatda korporativ mexanizmlar yetishmaydi   |

Aksiyadorlik jamiyat shakli - bu strategik ko'lAMDagi, investitsiya jaib etishga yo'naltirilgan, xalqaro hamkorlik, korporativ boshqaruv va bozor shaffofligiga asoslangan biznes modellidir. Ko'riniib turibdi, aksiyadorlik jamiyat mas'uliysi cheklangan jamiyatga nisbatan huquqiy, moliyaviy va tashkiliy jihatdan sezilarli ustunliklarga ega.

Darhaqiqat, amalga oshirilgan islohotlar natijasida mahalliy sug'urta tashkilotlarining kapitallashuv darajasi o'tgan qisqa davr davomida keskin o'sdi, yani 2021 yil yakunlari bo'yicha sug'urta tashkilotlarining jami ustav kapitali miqdori 1,54 trln. so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2024 yil yakunlari bo'yicha bu ko'sratikch 2,96 trln. so'mga etdi, 3 yil davomida o'sish qariyb ikki barobarni tashkil etdi. Ushbu ko'sratichilari ta'minlashda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasining sug'urta bozorini isloh qilish va uning jadal rivojlanishini ta'minlash

chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2019 yil 2 avgustdag'i PQ-4412-soni hamda "Sug'urta xizmatlari bozorini yanada rivojlantirishning kompleks choratadbirlari to'g'risida"gi 2024 yil 1 martdag'i PQ-108-soni qarorlarida sug'urtalovchilarning ustav kapitalining eng kam miqdoriga belgilangan talablar muhim o'rinni tutadi, lekin shu bilan birga sug'urta tashkilotlarining aksiyadorlik jamiyat shaklidagi korporativ boshqaruv tizimiga o'tishi tezkor tarzda kapitallashuv darajasining ko'tarilishiga xizmat qildi.

Xalqaro korporativ boshqaruv tizimlari, xususan, OECD (Organisation for Economic Co-operation and Development) tomonidan ishlab chiqilgan tamoyillar va boshqaruv ko'sratichilari, sug'urta tashkilotlarining samarali boshqaruvi uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

OECDning "Korporativ boshqaruv tamoyillari" hujjati quyidagi asosiy tamoyillarga asoslanadi:

- Shaffoflik – kompaniya faoliyati to'g'risidagi axborotning ochiqligi va aniq hujjalashtirilganligi;
- Hisobdorlik – rahbariyatning qabul qilgan qarorlari uchun aksiyadorlar va boshqa manfaatdor tomonlar oldida javob berishi;
- Adolatlilik – barcha manfaatdor tomonlarning huquqlariga hurmat;
- Javobgarlik – kompaniyaning ijtimoiy, ekologik va iqtisodiy majburiyatlarini bajara olishi.

Bu tamoyillar, xususan, Xalqaro moliyaviy hisobot standartlari (IFRS) va boshqaruvni nazorat qilish mexanizmlari yordamida sug'urta tashkilotlarining samarali faoliyatini ta'minlash uchun zarur hisoblanadi.

Aksiyadorlik jamiyat shaklidagi korporativ boshqaruv tizimining gator afzalliklariga qaramay ayrim mahalliy sug'urta kompaniyalarining bu yo'nalishdagi faoliyati ko'p hollarda formal xarakter kasb etmoqda. Tahllilar ko'sratmoqdaki, sug'urta kompaniyalari ko'p hollarda faqat davlat talablarini bajarish bilan cheklanib, strategik rivojlanish va manfaatdor tomonlar bilan muloqotni e'tibordan chetda qoldirishmoqda. Bularning barchasi quyidagi yo'nalishlarda namoyon bo'lmoqda:

- mustaqil direktorlar institutining deyarli yo'qligi;
- kuzatuv kengashi va ijro organi (menejment) o'rtasida vazifalar chegaralanmagan;
- ichki audit va risklarni baholash tizimi sust rivojlangan;
- mijozlar va aksiyadorlar bilan aloqa zaif;
- huquqiy bazanining zaifligi – korporativ boshqaruv bo'yicha aniq va majburiy standartlar mayjud emas;
- mutaxassislarining yetishmasligi – sug'urta va korporativ boshqaruv sohalarini chuqur biladigan mutaxassislar kam;
- axborot texnologiyalaridan yetarlicha foydalanimasligi;
- manfaatdor to'qnashuvining tartibga solinmaganligi.

Sanab o'tilgan muammolarni bartaraf etish hamda mahalliy sug'urta tashkilotlarida korporativ boshqaruv tizimini yanada takomillashtirish maqsadida quyidagilarni amalga oshirish muhim hisoblanadi:

1. Korporativ boshqaruv kodeksini ishlab chiqish va joriy etish: Har bir sug'urta kompaniyasi o'z ichki nizomi asosida korporativ boshqaruv kodeksini ishlab chiqishi va unga rioya qilishi zarur.

2. Mustaqil direktorlar institutini kengaytirish: Kompaniyalar boshqaruv kengashining kamida 30 foizini mustaqil ekspertlar, auditorlar va moliya mutaxassislaridan tashkil etishi kerak.

3. Ichki audit tizimini mustahkamlash: Har bir sug'urta kompaniyasida ichki audit bo'limi mustaqil faoliyat yuritishi va u bevosita boshqaruv kengashiga bo'yusunishi lozim.

4. Axborot texnologiyalarini joriy etish: Kompaniyalar moliyaviy hisobot, menejment qarorlarini va xizmatlar sifatini onlayn tizimlar orqali kuzatish imkonini yaratishi zarur.

5. Manfaatdor tomonlar bilan muloqotni rivojlanish: Aksiyadorlar, mijozlar va imamlar bilan muloqotni kuchaytirish, yillik yig'ilishlar va ochiq hisobotlar orqali ishonchni oshirish.

6. Davlat nazorati va mustaqil reyting tizimlarini uyg'unlashtirish: Davlat tomonidan belgilangan standartlar bilan bir qatorda mustaqil reyting agentliklarining baholarini tatbiq etish foydalisi hisoblanadi.

#### Xulosa (Заключение/Conclusion)

O'zbekiston sug'urta bozoridagi korporativ boshqaruv tizimi iqtisodiy va huquqiy jihatdan rivojlanishning muhim omili bo'lib, sohaning barqaror va samarali ishlashini ta'minlashda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Sug'urta tashkilotlarining boshqaruv tizimi bugungi kunda bir qator muammolarga duch kelmoda, ularning eng yiriklari mustaqil kuzatuv kengashlarining etishmasligi, axborotning shaffofligi, ichki audit tizimining sustligi va davlat nazorati bilan bog'liq masalalardir.

Xalqaro tajribalar, ayniqsa OECDning korporativ boshqaruv tamoyillari va yuqori samarali sug'urta tizimlariga ega bo'lgan davlatlarning modeli O'zbekiston sug'urta sohasini rivojlantirishda muhim yo'nalishlarni belgilaydi. Xalqaro standartlarga asoslangan risk boshqaruvi tizimlarini joriy etish, raqobatni oshirish va mustaqil nazorat tizimini yaratish - bu jarayonlarning samarali ishlashiga olib keladi.

**Foydalaniłgan adabiyotlar (Литература/ References):**

1. O'zbekiston Respublikasining "Sug'urta faoliyati to'g'risida"gi 730-son Qonuni, 2021 yil 23 noyabr.
2. O'zbekiston Respublikasining "Aksiyadorlik jamiyatlar va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi 370-son Qonuni, 2014 yil 6 may.
3. O'zbekiston Respublikasining "Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar to'g'risida"gi 310-II-slon Qonuni, 2002 yil 1 mart.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasining sug'urta bozorini isloh qilish va uning jadal rivojlanishini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2019 yil 2 avgustdag'i PQ-4412-slon Qarori.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Sug'urta xizmatlari bozorini yanada rivojlantirishning kompleks chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2024 yil 1 martdag'i PQ-108-slon Qarori.
6. Чупанова Х.А. Взаимосвязь корпоративного управления со стоимостью компаний на примере американских страховых компаний. Журнал Вестник РМАТ №1, 2021.
7. Tricker B. "Corporate Governance: Principles, Policies and Practices" (2019).
8. Baxriev D. Sug'urta kompaniyalarini boshqarishning zamonaviy modellarini qo'llash orqali moliyaviy barqarorligini ta'minlash. Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil №1(8), 2023.
9. <https://napp.uz>